

**OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA CHET TILLARINI O’QITISH
SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH VA KREDIT-MODUL TIZIMI
ISTIQBOLLARI**

Muxammad Chutpulatov

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti

Jahon ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida ta’lim sifatini xalqaro darajaga ko’tarish, modulli ta’limni yo’lga qo’yish, kasbga tayyorlashni umumyeвроpa CEFR malaka talablari [3] asosida rivojlantirish, talabalar o’quv faoliyatini takomillashtirishda innovatsion ta’limni tashkil etish bo’yicha ilmiy izlanishlar olib borish yo’lga qo’yilgan. Shu bilan birga, talabalarning xorijiy tilda akademik va texnik muloqotini rivojlantirish, ta’limni tashkil etishda kredit tizimlarini qiyoslash, talabalarning o’quv faoliyatini kredit-modul tizimida takomillashtirish yuzasidan qator ilmiy tadqiqotlar o’tkazilmoqda.

Mamlakatimizda so’nggi yillarda oliy ta’lim muassasalarida o’quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o’tkazish, talabalar akademik mobilligini ta’minlash, mustaqil ta’limni kengaytirish, ta’lim mazmuni va sifatini xalqaro darajaga ko’tarishning me’yoriy asoslari yaratilmoqda. “xorijiy tillarni o’rgatish bo’yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo’ladigan yangi tizimni yo’lga qo’yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o’z oldimizga maqsad qilib qo’ygan ekanmiz, bundan buyon ... oliy o’quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart” [1] ekanli to’g’risida ustuvor vazifalar belgilandi. Natijada chet tillarini o’qitishda talabalarning o’quv faoliyatini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari kengayadi.

“O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”[5]da yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasida oliy ta’lim tizimi oldida bugungi kunda o’z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb muammo va kamchiliklar saqlanib qolganligi, shu jumladan: talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko’nikmalari shakllantirilmaganligi, o’quv adabiyotlari yetishmovchiligi saqlanib qolib, mavjudlarining aksariyat qismi zamon talablariga javob bermayotganligi va boshqalar qayd etib o’tilgan. Bundan tashqari mazkur hujjatda, davlat va jamiyat oldida turgan muhim vazifalarni hal etishda mas’uliyatni o’z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, zamonaviy bilim va ko’nikmalarni o’zlashtirgan, insoniy fazilatlariga ega

yoshlarni professional kasb egasi sifatida tayyorlash, bu borada yangicha yondashuvlarni talab etadigan ta’lim-tarbiya usullaridan foydalanish zarurati, Respublika oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimiga bosqichma-bosqich o’tilishi ta’kidlangan.

Mazkur hujjatda keltirilgan masalalar kredit-modul tizimida talabalarning o’quv faoliyatini takomillashtirish imkoniyatlari muammoli vaziyatlarda pedagogik muammoni ratsional bartaraf etishga qaratilgan mustaqil o’quv faoliyatini izchil tashkil etishning pedagogik ta’minotini boyitish, o’quv faoliyati ijodiy motivatsiyasini maqsadli shakllantirish hamda xorijiy tilning kommunikativ, adaptiv va modellashtirish darajasini shaxsiy motivlarga frontal moslashtirish asosida takomillashtirishni taqozo etadi. Ma’lumki, kredit-modul tizimi bo’yicha hozirgi vaqtda mamlakatimizning ko’pgina oliy ta’lim muassasalarida bir muncha ishlar qilinmoqda. Kredit-modul tizimi yuzasidan materiallarni o’rganishlarimiz shuni ko’rsatadiki, ushbu tizim barcha rivojlangan davlatlarda o’ziga xos xususiyatlarga ega. Kredit ta’lim tizimining samarasi va maqsadga muvofiqligi uning bir qancha taraqqiy etgan mamlakatlar ta’lim tizimlarida ko’proq tarqalganligi va yaxshi natijalarga erishilganligi bilan asoslanadi, chunki ta’lim dasturlarining talabalarda mustaqil ishlash ko’nikmalarini rivojlantirishga qaratilishi o’quv faoliyati ijodiy motivatsiyasini maqsadli shakllantirish, ijodiy faollik va bilim olishga o’zini safarbar qilishga hamda kelgusida ta’lim sifatini oshishiga olib keladi. Biroq *milliy kredit-modul tizimida qanday qilib samaradorlikka erishish mumkin?*, degan savol barcha pedagoglarni o’ylantirsa kerak. Kredit-modul tizimida talabalar o’quv faoliyatini takomillashtirishdagi mavjud to’siqlar va pedagogik muammoni ratsional bartaraf etish yo’llari ilmiy-tadqiqot ishimizda ochib beriladi.

Kredit-modul tizimi talabalarning ta’limga yangicha munosabatda bo’lishlarini va mustaqil ishlashlarini ta’minlaydi [5]. Ta’limning sifati va samaradorligi talabalarni ushbu jarayonga tayyorlashdan kelib chiqadi. Bu borada keyingi sahifalarda mufassal fikr-mulohazalar yuritilgan. Kredit-modul tizimida talabalarning o’quv faoliyatini takomillashtirishning xususiyatlari, pedagogik imkoniyatlari o’zgardi. Kredit-modul tizimida talabalarning o’quv faoliyatini takomillashtirish imkoniyatlari muammoli vaziyatlarda pedagogik muammoni ratsional bartaraf etishga qaratilgan mustaqil o’quv faoliyatini izchil tashkil etishning pedagogik ta’minotini boyitish, o’quv faoliyati ijodiy motivatsiyasini maqsadli shakllantirish hamda xorijiy tilning kommunikativ,

adaptiv va modellashtirish darajasini shaxsiy motivlarga frontal moslashtirish asosida takomillashtirish bugungi kunda o‘z yechimini kutmoqda. Shu munosabat bilan avvalo, kredit-modul tizimi sharoitida talabalar o‘quv faoliyatini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslariga to‘xtalib o‘tishni lozim, deb topdik. Zero, nazariya doimo birlamchi, amaliyot uning mahsuli hisoblangan.

Kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning individual-tipologik xususiyatlarini o‘quv faoliyati ko‘rsatkichlari bilan o‘zaro aloqadorligini intensiv ta’minlash, o‘quv faoliyatini ratsional takomillashtirishda pedagogik-psixologik omillarni tegishlicha hisobga olish maqsadga muvofiqdir: ta’lim jarayonida talaba shaxsi: o‘ylaydi, his qiladi, biladi, faoliyat yuritadi va u alohida e’tiborga molik; til o‘rganishga ijodiy motivatsiyaning mavjudligi; predmetlararo aloqaning o‘zaro munosabatlar va akademik hamda texnik muloqot vositalariga ta’siri; muloqot jarayonida kommunikantlarning bir-birlarini o‘zaro tushunishlarining ta’minlanishi.

Xorijiy tillarni o‘rgatishda lingvodidaktika psixolingvistika qonuniyatlariga tayanadi, chunki ta’lim jarayonining samarali tashkil etilishi ko‘pgina pedagogik-psixologik omillarga bog‘liq. Sababi ushbu fanning tadqiqot obyekti o‘quvchi va ta’lim jarayoni hisoblanadi. Bundan tashqari, xorijiy tillarni o‘rgatish-o‘qitishda o‘quvchining psixofiziologik yosh xususiyatlari, tiplari alohida o‘rin tutadi. Ma’lumki, har qanday yoshning o‘ziga xos jihatlari mavjud bo‘lib, bu alohida yondashuvni talab etadi. Bu boradagi fikr-mulohazalar bir qator olimlar [2] ilmiy ishlarida to‘liq tavsiflab o‘tgan.

Kredit-modul tizimida talabalarning o‘quv faoliyatini takomillashtirishning xususiyatlari va pedagogik imkoniyatlari borasidagi izlanishlarimiz jarayonida quyidagilarni o‘rgandik. Individual yondashuv asosan ijodiy topshiriqlarni bajarishga yo‘naltiriladi. Har bir o‘quvchi yoki talaba o‘zining individual (jismoniy, psixik va b.) xususiyatlariga ega bo‘lib, ushbu xususiyatlar uning o‘quv faoliyatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Pedagogning mazkur xususiyatlarni o‘rganishi va inobatga olishi o‘qitish sifatini oshirish, har bir til o‘rganuvchining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi [4]. Mazkur jarayon assotsiatsiya qo‘zg‘alishi natijasida samarali kechadi. Fikran bog‘lanish (assotsiatsiya) deganda, psixik jarayonlar aloqasi tushuniladi. Psixologiyada assotsiatsiya nazariyasiga asoslangan qator eksperimental tadqiqotlar o‘tkazilgan.

Xorijiy til ta’limida ijodiy faollik, mustaqil qaror qabul qilish malakasi, alohida shaxsga yo’naltirilgan yondashuv, o’zgaruvchan sharoitga tezda moslashish, tashabbus va o’z-o’zini boshqarish kabilar ustuvor hisoblanadi. Xorijiy tillarni o’rganish jarayonida o’quvchi-talabalarning ijtimoiy voqelik hodisalariga to’g’ri baho bera olishlari, ijtimoiy o’zgarishlar xususida shaxsiy fikrga ega bo’lishlari, muammolarni ko’ra bilishlari, masalaga mantiqiy yondashishlari va shu kabi qator ma’naviy-madaniy xislatlari rivojlantiriladi. Talabalarning psixofiziologik yosh xususiyatlari, tiplari, qobiliyatlari va til tajribalarini hisobga olish hamda ularda til o’rganishga ijodiy motivatsiyani maqsadli shakllantirish orqali kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning shart-sharoitlari, omillarini aniqlashga imkoniyat yaratadi va kelgusida umumiy kompetentlikka erishishlariga yordam beradi.

Kredit-modul tizimida talabalarning o’quv faoliyatini takomillashtirishda mavjud to’siqlar: mazkur tizim mohiyatini to’liq tushunib yetmaslik; talabalarning fanni, o’qituvchini tanlashlarining yaxshi yo’lga qo’yilmaganligi; fan dasturlarining xorijiy tajribaga asoslanmaganligi; o’quv adabiyotlarining kredit-modul tizimi uchun yetarli emasligi; xorijiy til – mutaxassislik fani – ishlab chiqarish korxonalari integratsiyasi samarali tashkil etilmaganligi; mustaqil ta’limni tashkil etishdagi ba’zi kamchiliklar aniqlangan.

Ta’kidlab o’tilganidek, mazkur muammolarni ratsional bartaraf etish yuzasidan quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Kredit-modul tizimining mazmun-mohiyatini va Respublika OTMLari uchun sifat manbayi ekanligini tushunib yetish.

- Oliy ta’lim muassasalarida Registrator ofis va tyutorlar ishini yaxshi yo’lga qo’yish.

- Talabalarning moslashishlari, fanni va professor-o’qituvchilarni tanlashlariga imkoniyat yaratish hamda sog’lom muhitni shakllantirish.

- O’quv fan dasturlarini milliy sharoitni hisobga olib rivojlangan mamlakatlar dasturiga tenglashtirish.

- Xorijiy tildan dastur va darsliklar tuzishda mutaxassislik fanlari uzviyligini ta’minlash, soha professor-o’qituvchilari bilan hamkorlik qilish.

- Kredit-modul tizimida ichki va tashqi omillar, xususan, integrativ yondashuvga, xorijiy til – mutaxassislik fani – ishlab chiqarish korxonalari integratsiyasiga amal qilish.

– Talabaning mustaqil ishi va mustaqil ta’limni tashkil etishda Internetdan samarali foydalanish, ya’ni ma’lumotlarni qidirib topish, qayta ishlash va boshqaga uzatish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa, oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimi asosida talabalarning o’quv faoliyatini takomillashtirish yuzasidan mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va imkoniyatlar, shart-sharoitlardan oqilona foydalanish orqali erishiladi. Kredit-modul tizimiga kirish o’quv jarayonini jadallashtiradi, talabalar o’quv faoliyati ijobiy motivatsiyasiga ta’sir etadi va o’qituvchilar ishini sezilarli darajada o’zgartiradi. O’zbekiston oliy ta’lim muassasalarining ta’lim tizimiga xalqaro hamkorlik uchun yo’l ochadi. Oliy ta’lim muassasalarida kreditlarni to’plash qisqacha qilib aytganda, avvalgi shaxsiy ish rejadagi barcha o’quv-tarbiya jarayonini qamrab oladi. Shuningdek, xorij tajribalarini o’rganish orqali samaradorlikka, yaxshi natijalarga erishiladi. O’zbekiston oliy ta’lim tizimida kredit tizimi yangi imkoniyatlar va innovatsion texnologiyalar eshigini ochishga xizmat qilishi muqarrar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-may kuni chet tillarini o’qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan o’tkazilgan videoselektor yig’ilishi nutqidan. <https://iiv.uz/oz/news/prezident-xorijiy-tillarni-orgatish-boyicha>

2. Bo’riboyev A.A. Kredit-modul tizimida individual ta’limning o’rni / "Science and Education" Scientific Journal, ISSN 2181-0842, April 2022, Volume 3 Issue 4. – B. 892-895. www.openscience.uz

3. Новиков А.М. Структура образовательной деятельности обучающихся // Муниципальное образование: инновации и эксперимент. - №4, 2010. – С. 3-12.

4. Соляник О.Е. Модульная система в работе с иностранными учащимися технического вуза// Ж. Крымский научный вестник, №1 (7), 2016. – С. 154-162. krvestnik.ru

5. Hasanova M.U., Jumanova M.G’. Kredit-modul tizimi va uning amaliyotga joriy etish tamoyillari (oliy ta’lim muassasalarida matematika o’qitishda) "Oriental ISSN 2181-063X Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (3) III /2020. – B. 264-270.